

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA INSTITUTI



**"Zahiriddin Muhammad Bobur ilmiy-ijodiy merosining  
jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida  
tutgan o'rni"  
mavzusida onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

**Международная научно-практическая онлайн  
конференция на тему**

**"Научно-творческое наследие Захириддина Мухаммеда  
Бабура и его роль в мировой литературе, науке и  
истории государственности"**

**The online international scientific and practical  
conference on the theme:**

**"The role of Babur's creative heritage in world literature  
and his statehood development in history"**

**CHIRCHIQ-2023**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

*«Zahiriddin Muhammad Bobur ilmiy-ijodiy merosining jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida tutgan o'rni» mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman*

*Международная научно-практическая онлайн конференция на тему  
«Научно-творческое наследие Захириддина Мухаммеда Бабура и его роль в мировой литературе, науке и истории государственности»*

*The online international scientific and practical conference on the theme:  
«The role of Babur's creative heritage in world literature and his statehood development in history»*

**CHIRCHIQ – 2023**

**BOSH MUHARRIR**

**Shakarboy Janikulov**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent

**MAS’UL MUHARRIR**

**Samariddin Qorayev**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti O‘quv-uslubiyat departamenti boshlig‘i, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**TAHRIRIYATA’ZOLARI**

**Bahrom Izbasarov**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti O‘quv va tarbiyaviy ishlar bo‘yicha prorektori, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori

**Iso Dusbayev**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**Saodat Gayupova**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Yoshlar bilan ishslash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i

**Otabek Yo‘ldoshev**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Tillar va maktabgacha ta’lim yo‘nalishi rahbari, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**Jummagul Abduraxmanova**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar yo‘nalishi rahbari, tarix fanlari nomzodi

**Ikrom Qodirov**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Pedagogika fanlari yo‘nalishi rahbari

**Kurbanali Ruziyev**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari yo‘nalishi rahbari

**Maftuna Qurbanova**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Pedagogika fanlari yo‘nalishi dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**Anora Temirova**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Tillar va maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchisi

**Rahimberdi Ayatov**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Tillar va maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchisi

**Saida Mumindjanova**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Tillar va maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchisi

**Muxarram Mamatova**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti O‘quv-uslubiyat departamenti uslubchisi

**Sherzod Usmonov**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti O‘quv-uslubiyat departamenti uslubchisi

**MUSAHHIH**

**Akmal Abdullayev**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Tillar va maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchisi

**TO‘PLAMNI TAYYORLOVCHI**

**Nursulton Shayxislamov**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti O‘quv-uslubiyat departamenti o‘quv ishlari bo‘yicha inspektor

## SO‘Z BOSHI

Fevral oyida mamlakatimiz ziyorilar uchun alohida e'tiborga molik ikkita sana bor. Bular – 9-fevral so‘z mulkining sultoni mir Alisher Navoiy hamda 14-fevral – shoh va shoir, buyuk sarkarda, boburiylar sulolasiga asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud ayyomlaridir.

Har yili ta’lim tizimining barcha bosqichlarida, madaniy-ma’rifiy muassasalarda ushbu qutlug’ ikki sana o‘ziga xos tarzda nishonlanib kelinadi. Biroq, bu yil birinchi sanani zarracha kansitmagan holda ikkinchi sanaga davlat va hukumat darajasida yana bir yangi e’tibor qaratildi – “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi zahiriddin muhammad bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvarda PQ-20-sonli qarori qabul qilindi. Buning bir nechta sabablari bor. Jumladan,

- Jonajon Vatanimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichiga — Uchinchi Renessans davriga qadam qo‘yayotgan, hayotimizning barcha jahbalarida tub o‘zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Bobur Mirzoning bebafo merosini chuqr o‘rganish va ommalashtirish bugungi kunda har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

- Buyuk ajdodimiz asarlarining milliy va umuminsoniy mohiyati, uning yosh avlod intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirish, farzandlarimizni shu asosda Yangi O‘zbekiston buniyodkorlari etib tarbiyalash borasidagi ulkan o‘rni va ta’sirini keng targ’ib etish zaruriyatining ortganligidir.

Buyuk sulola asoschisi, sohibdevon sohir shoir, adabiyot nazariyotchisi, islam fiqhining yetuk bilimdoni, badiiy tarjimon, yangi yozuv (“Xatti Boburiy”) kashfiyotchisi, qomusiy asar “Boburnoma” muallifi, shariatpanoh shoir, fidoyi ota va yana ko‘plab ulug’ insoniy fazilatlar egasi bo‘lgan bu zot haqida dunyoning ko‘plab taniqli insonlari o‘zlarining samimiyatga yo‘g‘rilgan fikrlarini aytganlar. Masalan, Hindistonning donishmand farzandi, buyuk davlat arbobi Javohirla’l Neru o‘zining «Hindistonning ochilishi» va «Jahon tarixiga bir nazar» asarlarida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida samimiyatga to‘liq ushbu fikrlarni izhor etgan: «Bobur — dilbar shaxs. Uyg‘onish davri hukmdorining haqiqiy namunasidir. U mard va tadbirkor odam bo‘lgan. Bobur o‘ta madaniyatli va jozibali insonlar orasida eng yetuk insonlardan biri edi. U mazhabparastlik kabi cheklanishdan va mutaassiblikdan yiroq edi... Bobur san’at va, ayniqsa, adabiyotni sevardi». Ingliz tarixchisi Eduard Holden, avvalo, Boburni mashhur Yuliy Sezar bilan qiyoslashni lozim topadi: «Bobur fe’l-atvoriga ko‘ra Sezarga qaraganda sevishga arzigelikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo‘yilgan». Zahiriddin Muhammad Boburning bolalik va o‘smirlilik yillari

haqida roman yozgan «Boburnoma»ning ingliz tarjimoni Uilyam Erskin Boburni Osiyo podshohlariga qiyosan shunday baholaydi: «Saxovati va mardligi, iste'dodi, ilm-fan, san'atga muhabbatи va ular bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi».

Mana shunday e'tiroflarga sazovor bo'lgan buyuk vatandoshimizning boy ma'naviy merosini yanada kengroq targ'ib qilish borasida yuqoridagi qaror ko'rsatmasi o'laroq, biz – ziyolilarning oldimizga bir qancha vazifalar qo'yildi. Bobur Mirzo merosiga mansub qo'lyozma, qadimiylitoblar, san'at asarlari va boshqa madaniy boyliklarni restavratsiya qilish, ularni ishchonchli darajada saqlash uchun zarur sharoit yaratish, xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, ilmiy-ijodiy merosi hamda u yashagan davrga oid noyob qo'lyozma asarlar va boshqa madaniy boyliklarni aniqlash, ularning nuxxalarini O'zbekistonga olib kelish va tadqiq qilishni davom ettirish, Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy-ijodiy merosini, davlatchilik va sarkardalik faoliyatini keng o'rganish maqsadida xalqaro miqyosda ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalarini e'lon qilish, yangi ilmiy, badiiy-publisistik asarlar yaratish, Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan yuqori sifatli media mahsulotlar hamda audiovizual asarlar yaratish, ularni mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng targ'ib qilish kabilar shular jumlasidadir.

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti ilmiy jamoasi tomonidan tashkil etilgan bugungi tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ham ushbu qarorda belgilangan vazifalar ijrosi yo'lidagi bir debochadir.

O'ylaymanki, ushbu ezgu ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar turkumi yangicha formatlarda mamlakatimiz va jahon madaniy ziyoli jamoasi tomonidan keng ko'lamda davom ettiriladi.

***Shakarboy Janikulov***  
*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti rektori,  
texnika fanlari nomzodi, dotsent*

## “BOBURNOMA” ASARINING BUGUNGI KUNDAGI ILMIY-MA’RIFIY AHAMIYATI

*Xo‘rozov Suhrobbek Aktam o‘g‘li,  
Chirchiq davlat pedagogika univeristeti*

**Annotatsiya:** maqolada “Boburnoma” asariga chet el olimlarining bildirgan fikrlari, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z o‘g‘illariga qilgan vasiyatlari va Boburning asarlari bugungi kunga qadar eng qimmatli asar sifatida saqlanib kelayotgani haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Bobur, Boburnoma, ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, qomusiy olim, adabiyotshunoslik, xalqlarning madaniyati, hududlarning geografiyasi, hayvonot olami.

**Аннотация:** в статье приводятся сведения о мнениях зарубежных ученых о произведении «Бобурнома», завещаниях Захириддина Мухаммада Бабура своим сыновьям, а также о том, что произведения Бабура до сих пор сохранились как наиболее ценные произведения.

**Ключевые слова:** Бабур, Бобурнома, социально-экономическая политика, энциклопедист, литературоведение, культура народов, география регионов, животный мир.

**Annotation:** the article provides information about the opinions of foreign scholars on the work "Boburnoma", Zahiriddin Muhammad Babur's bequests to his sons, and the fact that Babur's works are still preserved as the most valuable works.

**Key words:** Babur, Baburnoma, socio-economic policy, encyclopedist, literary studies, culture of peoples, geography of regions, animal world.

Asrlar davomida ajdodlarimiz uchun, bugungi davr avlodlari orasida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan “Boburnoma”- memuar asari o‘zbek va umumturkiy adabiyotining dunyoga ma’lum va mashhur qomusiy asari ekanligi hech kimga sir emas. Bu asarda xalqlararo O‘zbekiston, Afg‘oniston va Hindiston xalqlarining madaniyati, qadriyatlari, o‘ziga xos jihatlaridan tashqari bu hududlarning tabiat, geografiyasi, hayvonot va nabodot olami to‘g‘risida ham ma’lumotlar mavjud. Shu uchun bo‘lsa kerak, bu asar bir necha tillarga tarjima qilinishi uning badiiy qimmatini oshiradi. Muallifning bilimdonligi, keng dunyo qarashiga egaligi asarda bilinib turibdi. Buyuk qomusiy olim Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari nega beba ho qo‘llanma hisoblanadi? U o‘qishligi borasida nafaqat Markaziy Osiyo davlatlari, balki Eron, Turkiya, Bangladesh, Pokiston va yana qator davlatlarning madaniyatini, tarixi urf-odatlari, qadriyatlarini o‘zida aks ettirgani bilan qimmatlidir. Dunyo olimlari,

adabiyotshunoslarining “Boburnoma” asari haqidagi turli qarash va baholari ham uning nechog‘li dunyo hamjamiyatida qadrlanishidan dalolatdir:

Germaniyalik boburshunos Klaus Shoning “Boburnoma”ga baho berib “mukammal tizimdagи xalq tilida yozilgan eng katta hajmdagi asardir”, yaponiyalik yirik boburshunos Eyji Manov “Boburnoma”ni “ma’lumotlar xazinasi” deya atagan bo‘lsa , angliyalik boburshunos Beverij xonim esa “butun tarixda yaratilgan yozma yodgorliklarning eng bebahosidir”, deya ta’kidlaganining guvohi bo‘lamiz.[1] ”Boburnoma” adabiy va tarixiy ahamiyatga molik asar. Unda o‘z davridagi ko‘plab kishilarning turli vaziyatlardagi kechinmalari, Osiyoning ko‘plab tog‘lari, daryolari, o‘rmon va cho‘llari, iqlimi, aholisi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoli haqidagi ma’lumotlar jamlangan. Boburnoma o‘zbek nasrining go‘zal namunasi. Ungacha Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari muqaddimasida, Rabg‘uziy ijodida nasr namunalari uchrar edi. Alisher Navoiy uni yuqori pog‘onaga olib chiqdi. Biroq “Boburnoma” bu borada o‘zbek nasrining o‘ziga xos kashfiyoti sifatida yuz ko‘rsatdi. Asarda tarixning Bobur yashab o‘tgan davri voqealarini ifodalaganagn. Bu voqealar Andijon, Samarqand, Xo‘jand, Hirotdan boshlab Kobul va Agragacha bo‘lgan qamrovga ega. Ya’ni unda O‘rta Osiyodan boshlab Hindistongacha bo‘lgan masofadagi deyarli 50 yillik voqealar haqqoniy ifoda va bahosini topgan. Boburnomadagi voqealar bayoni aniq, ixcham va lo‘nda, tasirchan, eng muhimi, hayotiy haqiqatga mos va muvofiqligi bilan e’tiborlidir. Muallif voqealar bayonida tabiat tasviriga, ayrim joylar tavsifiga, alohida kishilarning tariflariga jiddiy ahamiyat beradi. Asarning ravon o‘qilishi, tushunarli bo‘lishi uchun maxsus lug‘atlar mavjudligi, har qaysi davrda ham uning o‘qilishini ta’minlaydi. Bugungi kunda zaminimiz boburshunoslik markaziga aylandi deya olamiz. Boburnoma asari nafaqat badiyligi, balki tarixiy manba sifatida ham o‘lmas merosdir. Boburnoma asari nafaqat badiyligi, balki tarixiy manba sifatida ham o‘lmas merosdir. Boburnoma asari orqali nafaqat o‘sha davr geografik, tarixiy, madaniy hayotini, balki Boburning fazilatli shaxs sifatida kashf etilishi bu asarning qimmatini oshiradi. Jumladan, Bobur va boburiylar sulolasi tarixi bilan astoydil qiziqqan o‘tkir qalam egasi adib P.Qodirov ijodi orqali nafaqat o‘lmas tarixiy roman “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni”da Boburning nafaqat shoh yoki shoir, hozirgi kunda ibrat bo‘la oladigan ota timsolini gavdalantiradi.[2]

Hozirgi kunda o‘tmish ajdodlarimizdan qolgan boy adabiy me’roslarni o‘rganish keng yo‘lga qo‘yilgan. Biz hali ham Bobur ijodini mukammal o‘rganib, Boburnomadek bir ulkan ummon ostida yotgan sirlardan to‘la voqif bo‘la olganimiz yo‘q. Bobur va boburiylar hayotini o‘rganish, Bobur ijodidan bahramand bo‘lish imkoniyatidan yiroq paytimizdayoq G‘arbda u haqda tarixiy, ilmiy, badiiy asarlar yaratib bo‘lingan. Bu buyuk ajdodimizning shaxsiyati o‘sha davrdayoq butun dunyoni hayratga solib, u haqda izlanishlar olib borishga da’vat qilganidan darak. Hali hamon bu davom etmoqda.

Bu asarda xalqlarning madaniyati, qadriyatlar,o‘ziga xos jihatlaridan tashqari bu hududlarning madaniyati, tabiat, geografiyasi, hayvonot va nabodot olami to‘g‘risida ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek “Boburnoma”da hindlarning etnografiyasi, ilm-u fani, sa’nat va madaniyati haqida bilishimiz mumkin.[3] Boburnoma asari nafaqat badiiyligi, balki tarixiy manba sifatida ham o‘lmas merosdir. Voqealar bayonida tabiat tasviriga,ayrim joylar tavsifiga, alohida kishilarning ta’riflariga jiddiy ahamiyat berishini ko‘ramiz. Boburnomadagi voqealar bayoni aniq ixcham va lo‘nda ta’sirchan eng muhimi hayotiy haqiqatga mos va muvofiqligi bilan e’tiborlidir. Shuning uchun bo‘lsa kerak, asrlar osha Boburnoma asari nafaqat adabiyot ixlosmandlari, balki o‘zbek millati uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega xazina yodgorlik bo‘lib qolaveradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Abdurashid Abdug‘afurov. O‘zME. birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. O‘zbek adabiyoti tarixi.Toshkent 1978
3. Boburnoma, T,1960

<i>Ширинбеков Дастан Медембекұлы, Жандос Абдазимович Байзаков</i> <b>ЗАХРИДДИН МУХАММЕД БАБЫР ӘЛЕМ ӘДЕБИЕТИ МЕН ТАРИХЫНДА ӨШПЕС ІЗ ҚАЛДЫРҒАН ҰЛЫ ТҮЛГА</b>	<b>115-118</b>
---	----------------

**3-SHO'BA: "BOBURNOMA" VA BOBURSHUNOSLIK SOHASIDA OLIB  
BORILAYOTGAN TADQIQOTLAR**

<i>Abdullahayev Akmal Amirovich</i> <b>"BOBURNOMA"DA TOSHKENT VILOYATI TOPONIMLARI HAQIDAGI MA'LUMOTLAR</b>	<b>119-123</b>
<i>Hatamova Gulbahor Mahammadaminovna</i> <b>"BOBURNOMA" – BOBUR MA'NAVIY QIYOFASI KO'ZGUSI</b>	<b>124-129</b>
<i>Majidov A.F., Jumayev J.B.</i> <b>"BOBURNOMA"NING TARIXIY VA ADABIY MEROS SIFATIDAGI BETAKROR O'RNI XUSUSIDA</b>	<b>130-133</b>
<i>Muso Tadjibayev</i> <b>THE CONCEPT OF HERBARISM IN BABUR'S CREATIVE HERITAGE</b>	<b>134-138</b>
<i>Muxtorova Xafiza Ixtiyor qizi</i> <b>"BOBURNOMA" ASARINING TARJIMONLIK SOHASIDA TUTGAN O'RNI</b>	<b>139-141</b>
<i>Nazarova Ma'rifat, Umid Jumanazarov</i> <b>"BOBURNOMA" – AVTOBIOGRAFIK MEMUAR ASAR</b>	<b>142-145</b>
<i>Odambayeva Umida Baxtiyor qizi, Raxmanova Nafisa Azatbekovna</i> <b>"BOBURNOMA"DA QO'LLANGAN TAXALLUS VA LAQABLAR TASNIFI</b>	<b>146-148</b>
<i>Omonxonov Javlon</i> <b>"BOBURNOMA" – TARIXIY MEMUAR ASAR</b>	<b>149-153</b>
<i>Shohjahon Abdusattorov</i> <b>"BOBURNOMA"DA MISR VA SHOMGA TENGLASHTIRILGAN O'LKALAR</b>	<b>154-157</b>
<i>Sulaymonov Mo'minjon Yusubjonovich, Xoldorova Gulnoza Husniddinovna</i> <b>"BOBURNOMA" – BUYUK DIDAKTIKA</b>	<b>158-161</b>
<i>Xo'rozov Suhrobek Aktam o'g'li</i> <b>"BOBURNOMA" ASARINING BUGUNGI KUNDAGI ILMIY- MA'RIFIY AHAMIYATI</b>	<b>162-164</b>
<i>Олимжонов Умаржон Одилжон Угли</i> <b>«БАБУРНОМА» ПУТЕШЕСТВУЕТ ПО МИРУ</b>	<b>165-170</b>

**4-SHO'BA: YOSH AVLOD INTELLEKTUAL VA MA'NAVIY SALOHIYATINI  
OSHIRISHDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ILMIY-ADABIY  
MEROSIDAN FOYDALANISH**

<i>Abdug'aniyeva Gulira 'no Alijon qizi</i> <b>ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR – BUYUK HARBIY SARKarda</b>	<b>171-173</b>
---	----------------